



**ZAMONAVIY KLINIK  
LABORATOR TASHXISI  
DOLZARB MUAMMOLARI**  
**xalqaro ilmiy-amaliy  
anjuman**



**27 dekabr 2022 yil**



**O'zbekiston Respublikasi Sog'Liqni saqlash vazirligi**  
[www.ssv.uz](http://www.ssv.uz)

**Toshkent tibbiyot akademiyasi**  
[www.tma.uz](http://www.tma.uz)

Bemorlarda kamqonlik darajalari o'rganib chiqilganda yengil daraja kamqonlik ya'ni gemoglobin miqdori  $>90\text{ g/l}$  gacha bo'lgan bemorlar soni –4ta (15,38%), o'rta og'ir daraja kamqonlik ya'ni gemoglobin miqdori 90 – 71g/l gacha bo'lgan bemorlar soni – 16 ta (61,34%), og'ir daraja kamqonlik ya'ni gemoglobin miqdori 70g/l va undan kam bo'lgan bemorlar soni – 6 ta (23,28%) ni tashkil etdi.

Eritrotsit miqdori  $3,0 \cdot 10^{12} \text{ g/l}$  gacha bo'lgan bemorlar soni – 9 ta (34,62%),  $3,0 - 2,6 \cdot 10^{12} \text{ g/l}$  gacha bo'lgan bemorlar soni – 12 ta (46,15%),  $2,5 \cdot 10^{12} \text{ g/l}$  va undan kam bo'lgan bemorlar soni – 4ta (15,38%) ekanligi aniqlandi.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Covid-19 og'ir darajada o'tkazgan homiladorlarda, bu kasallikni o'tkazmagan homiladorlarga gemoglobin va eritrotsit kamayishi bir necha barobarga ko'p uchradi. II guruh ya'ni homiladorlikning 2 – uch oyligidagi bemorlar eng katta qismni tashkil etdi. Turli bosqichlardagi homiladorlarda postkovid sindromida gemoglobin miqdori 90 – 71g/l gacha bo'lgan bemorlar 61,34% ni, eritrotsit miqdori  $3,0 - 2,6 \cdot 10^{12} \text{ g/l}$  gacha bo'lgan bemorlar 46,15% ni tashkil etdi.

### Adabiyotlar

1. Бабаджанова Ш.А., Курбонова З.Ч., Муминов О.А. Частота тромбоэмбологических осложнений у больных с коронавирусной инфекцией // Назарий ва клиник тиббиёт. – 2021. - №5. – С. 146-149.
2. Бабаджанова Ш.А., Курбонова З.Ч., Мадрахимов А.Л. и др. Диагностика геморрагического синдрома у беременных // Актуальные научные исследования в современном мире. - 2017. - №2-3 (22). - С. 55-60.
3. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Диагностика и лечение приобретенной тромбоцитопатии: методические рекомендации. – Ташкент, 2018. – 21 с.
4. Курбонова З. Ч., Бабаджанова Ш.А. Коронавирус инфекциясида гемостаз патологиясини лаборатор ташхислаш ва даволаш: услубий тавсиянома. Тошкент, 2022. – 20 с.
5. Курбонова ЗЧ, Бабаджанова ША, Муминов ОА. Лабораторный мониторинг патологии коагуляционного гемостаза у больных COVID-19 // Назарий ва клиник тиббиёт. – 2021. – С. 149-151.
6. Курбонова ЗЧ, Муминов ОА. COVID-19 этиологияси ва патогенези тўғрисидаги замонавий талқин // Назарий ва клиник тиббиёт. – 2022. - №5. – С. 84-86.
7. Kurbonova Z.Ch., Xo'shboqova G.O'.,, Alimova U.O. Covid-19 bo'lgan bemorlarda qon korsatkichlari // Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi. - 2021. - №1. – С. 31-34.

## HOMILADORLARDA GEMATOLOGIK KO'RSATKICHLAR LABORATOR DIAGNOSTIKASI

Zaynudinova D.L., Xurramova D.I.  
*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi*

Homilador ayol sog'ligi nafaqat O'zbekiston, balki umumjahon mamlakatlarining tibbiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'gan dolzarb masalalaridan

biri hisoblanadi. Chunki bu nafaqat onada, shu bilan birga bolada ham turli kasalliklar, og'ir asoratlar hamda nogironlik sonining ko'payishiga olib keladi. Vaqtida qilingan qon tahlillari, uning to'g'ri interpretatsiyasi nafaqat diagnostikada balki, aniq va to'g'ri diagnoz qo'yishda, davo muolajalarini qay tarzda boshlash, qanday tartibda davom ettirishda juda katta yordam beradi. Barcha kasalliklarni aniqlashda umumiy qon tahlili – laborator diagnostikaning eng keng tarqalgan va qonning fizik - kimyoviy xossalari haqida ma'lumot olish uchun foydalaniladigan muhim laborator tekshiruv usulidir [1].

**Metodlar.** Tadqiqot uchun klinik material 2021-yil davomida Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasining homilador ayollar patologiyasi bo'limida turli tashxislar bilan davolangan 66 nafar homilador ayollar kasallik tarixidagi umumiy qon tahlili ma'lumotlaridan olindi. Bemorlarning yoshi 19-39 yosh, o'rtacha yosh ko'rsatkichi  $26,59 \pm 1,62$ ni tashkil etdi. Umumiyqon tahlilidagi gemoglobin miqdori, eritrotsitlar umumiy soni, rang ko'rsatkich ma'lumotlari o'rGANildi.

**Natijalar.** Homilador ayollar homilaning rivojlanish bosqichiga ko'ra 3 guruhga ajratildi. I guruh ya'ni homiladorlikning 1 - uch oyligi 7 ta bemorda, II guruh ya'ni homiladorlikning 2 - uch oyligi 12 ta bemorda va III guruh ya'ni homiladorlikning 3 - uch oyligi 40 ta bemorlarda qayd e'tildi.

Bemorlarda kamqonlik darajalari o'rGANib chiqilganda yengil daraja kamqonlik ya'ni gemoglobin miqdori  $>90$  g/l gacha bo'lgan bemorlar soni - 42ta (63,64%) ni, o'rta og'ir daraja kamqonlik ya'ni gemoglobin miqdori 90 – 71 g/l gacha bo'lgan bemorlar soni – 21 ta (31,82%) ni, og'ir daraja kamqonlik ya'ni gemoglobin miqdori 70g/l va undan kam bo'lgan bemorlar soni – 3ta(4,54%) ni tashkil etdi.

Eritrotsit miqdori  $3,0 \times 10^{12}$  g/l gacha bo'lgan bemorlar soni – 39 ta (59%),  $3,0-2,6 \times 10^{12}$  g/l gacha bo'lgan bemorlar soni – 15 ta (22,73%),  $2,5 \times 10^{12}$  g/l va undan kambo'lgan bemorlar soni – 12(18,2%) ta ekanligi aniqlandi.

Rang ko'rsatkichi 0,9 gacha bo'lgan bemorlar soni – 54ta (81,8%), 0,9-0,7 gacha bo'lgan bemorlar soni – 9 ta (13,63%), 0,7 va undan kam bo'lgan bemorlar soni – 3 ta (4,54%) ni tashkil etishdi.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, III guruh ya'ni homiladorlikning 3 - uch oyligidagi bemorlar eng katta qismni tashkil etdi. Gemoglobin, eritrotsit va rang ko'rsatkich miqdoriga ko'ra yengil darajadagi va o'rta og'ir darajadagi homiladorlik kamqonliklari yuqori ko'rsatkichlarni qayd etdi.

### Adabiyotlar.

1. Бабаджанова ША, Курбанова ГЧ, Курбонова ЗЧ. Изучение гематологических показателей при диффузно-токсическом зобе // Проблемы биофизики и биохимии. – 2021. – С. 43.
2. Бабаджанова Ш.А. Курбанова З.Ч. Цитологик ташхисга кириш: ўқув қўлланма. Тошкент, 2022. 137 б.
3. Babadjanova S.A. Kurbonova Z.Ch.Sitologik tashxisga kirish: o'quv qo'llanma. Toshkent, "Hilol nashr", 2021. 152 b.

4. Fayzullayeva N.I. Современные клинико - гемастозиологические аспекты ведения беременности и родов у женщин с идиопатической тромбоцитопенической пурпурой. Toshkent. 2016.
5. Khushbokova G.U. Babadjanova Sh.A., Kurbonova Z.Ch. Retrospective analysis of blood indicators in patients with coronavirus infection // Medicine and health sciences venice. – 2021. -22-23.
5. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Laboratoriya ishi: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2022. 140 b.
6. Saidov A.B. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Gematologik kasalliklar sitologik diagnostikasi: o'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent, Toshkent tibbiyot akademiyasi bosmaxonasi, 2021. – 56 b.

## HOMILADORLARDA TROMBOTSITOPATIYALARINI ANIQLASHDA KLINIK VA LABORATOR DIAGNOSTIKANING AHAMIYATI

Zaynudinova D.L., Babadjanova Sh.A.  
*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi*

So'ngi yillarda reproduktiv yoshdagি ayollar sog'ligi, xususan homiladorlik vaqtida kasallanishning ko'payishi ayniqsa havotirga solmoqda, chunki bu onada ham bolada ham turli xil kasalliklar va og'ir asoratlar sonining ko'payishiga olib keladi [1, 6].

Yer yuzida qon ketish sababli onalar o'limi 13-25% ni tashkil etadi. O'zbekistonda onalar o'limi dinamik pasayish tendensiyasiga ega bo'lishiga qaramay qon ketish va septik asoratlar tufayli hamon saqlanib qolmoqda [2, 3]. Trombotsitopatiyalar hozirda COVID-19 ning asorati deb qaralayotgan kasallik bo'lib, antikoagulyantlar, antiagregantlar va fibrinolitik dori vositalarini tartibsiz va ko'p qo'llanishidan trombotsitlardagi agregatsiya, adgeziya va retraktsiya funksiyalarini buzulishi [4, 5].

**Maqsad va vazifalar.** Homiladorlarda trombotsitopatiyalarning uchrash darajasini, sabablari va asoratlarini o'rganish. Buning uchun oldimizga quyidagi vazifalarni belgilab oldik: - Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasi miqyosida homilador ayollarda trombotsitopatiyalarning tarqalish darajasini o'rganish; - trombotsitopatiyalar natijasida qon ketish turlarini tahlili qilish.

**Qo'llanilgan usullar.** Ma'lumotlar Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasi Ginekologiya bo'limida trombotsitopatiyalar bilan statsionar davolanayotgan 30ta homiladorlardan obyektiv ko'ruv va so'rab surishtirish natijasida va kasallik tarixidan olindi. Bemorlarning yosh ko'rsatkichi 18 yoshdan 35 yoshgachani tashkil etadi. Homilador ayollardan umumiyl qon tahlilida trombotsitlar soni va trombotsitlar adgeziya-agregatsiya xususiyati tekshirildi.

**Olingan natijalar va muhokamalar.** 18 - 20 yosh bo'lgan homilador bemorlar soni – 5 ta (11,4%), 20-25 yosh oralig'ida bo'lgan homilador bemorlar soni 8 ta (17%) , 25 – 30 yosh chegarasidagi bemorlar soni 18 ta (51,4%) tashkil etdi.